XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 6-yanvar VII-18-1-12-177-K/26 Shovot tumani

Shovot tumanida 2026-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) soliq stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga;

yuridik shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barvargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1,2 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil

uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yo‘ldoshev), “Shovot istiqboli” gazetasi (M.Abdalova) hamda tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (Z.Raximov) bilan hamkorlikda;

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda “Shovot istiqboli” gazetasida rasmiy e’lon qilsinlar.

4. Xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-033-12-177-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi G.Dosova zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **DAVLATOV MURADBEK SAPARBOYEVICH**

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-18-1-12-177-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1	Shovot mahallasi	1,17	494,02
2	Mevazor mahallasi	1,17	494,02
3	Maxtumquli mahallasi	1,17	494,02
4	Madaniyat mahallasi	1,17	494,02
5	Qo‘shko‘pir mahallasi	1,17	494,02
6	Qunduz mahallasi	1,17	494,02
7	Qumyop mahallasi	1,17	494,02
8	Komiljon ota mahallasi	1,17	494,02
9	Qirg‘oq bo‘yi mahallasi	1,17	494,02
10	Qiyot mahallasi	1,17	494,02
11	Katqal’a mahallasi	1,17	494,02
12	Qangli mahallasi	1,17	494,02
13	Ipakchi mahallasi	1,17	494,02
14	Ijtimoiyat mahallasi	1,17	494,02
15	Idaliqal‘a mahallasi	1,17	494,02
16	Gulshan mahallasi	1,17	494,02
17	Guliston mahallasi	1,17	494,02
18	Bo‘ston mahallasi	1,17	494,02
19	Bog‘bon mahallasi	1,17	494,02
20	Beshchiqir mahallasi	1,17	494,02
21	Beshmergan mahallasi	1,17	494,02
22	Asavey mahallasi	1,17	494,02
23	Archazor mahallasi	1,17	494,02
24	Monoq mahallasi	1,17	494,02
25	Navro‘z mahallasi	1,17	494,02
26	Ogahiy mahallasi	1,17	494,02
27	Yangi O‘zbekiston mahallasi	1,17	494,02
28	Yangi yo‘l mahallasi	1,17	494,02

29	Yangi bo‘rloq mahallasi	1,17	494,02
30	Eshon qal‘a mahallasi	1,17	494,02
31	Yangiobod mahallasi	1,17	494,02
32	Turkiston mahallasi	1,17	494,02
33	Paxtakor mahallasi	1,17	494,02
34	Istiqbol mahallasi	1,17	494,02
35	Zamondosh mahallasi	1,17	494,02
36	Do‘stlik mahallasi	1,17	494,02
37	Bunyodkor mahallasi	1,17	494,02
38	Arbob mahallasi	1,17	494,02
39	Chig‘atoy mahallasi	1,17	494,02
40	Uzunko‘l mahallasi	1,17	494,02
41	To‘qmang‘it mahallasi	1,17	494,02
42	Tuproqqal’a mahallasi	1,17	494,02
43	Taraqqiyot mahallasi	1,17	494,02
44	Royat mahallasi	1,17	494,02
45	Po‘lat mahallasi	1,17	494,02
46	Komiljon Otaniyozov mahallasi	1,17	494,02
47	Oltinqal’a mahallasi	1,17	494,02
48	Oq-ko‘l mahallasi	1,17	494,02
49	Oq oltin mahallasi	1,17	494,02
50	Xitoy mahallasi	1,17	494,02
51	Arbek mahallasi	1,17	494,02
52	Bo‘yrachi mahallasi	1,17	494,02

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-18-1-12-177-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Shovot tumanida **Yuridik shaxslar bo‘yicha** qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdorga 1 gektarga** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Arbek mahallasi	0,99	47 013 120
2	Arbob mahallasi	0,99	47 013 120
3	Archazor mahallasi	0,99	47 013 120
4	Asavey mahallasi	0,99	47 013 120
5	Beshchiqir mahallasi	0,99	47 013 120
6	Beshmergan mahallasi	0,99	47 013 120
7	Bo‘ston mahallasi	0,99	47 013 120
8	Bo‘yrachi mahallasi	0,99	47 013 120
9	Bog‘bon mahallasi	0,99	47 013 120
10	Bunyodkor mahallasi	1,16	55 086 080
11	Chig‘atoy mahallasi	0,92	43 688 960
12	Do‘stlik mahallasi	1,16	55 086 080
13	Eshon qal‘a mahallasi	0,92	43 688 960
14	Guliston mahallasi	0,99	47 013 120
15	Gulshan mahallasi	0,99	47 013 120
16	Idaliqal’a mahallasi	0,99	47 013 120
17	Ijtimoiyat mahallasi	0,99	47 013 120
18	Ipakchi mahallasi	0,99	47 013 120
19	Istiqbol mahallasi	1,16	55 086 080
20	Qangli mahallasi	0,99	47 013 120
21	Katqal’a mahallasi	0,99	47 013 120
22	Qo‘shko‘pir mahallasi	0,99	47 013 120
23	Komiljon Otaniyozov mahallasi	0,99	47 013 120
24	Komiljon ota mahallasi	0,92	43 688 960
25	Madaniyat mahallasi	0,99	47 013 120
26	Maxtumquli mahallasi	0,99	47 013 120
27	Mevazor mahallasi	0,99	47 013 120

28	Monoq mahallasi	0,99	47 013 120
29	Navro‘z mahallasi	0,99	47 013 120
30	Ogahiy mahallasi	0,99	47 013 120
31	Oltinqal’a mahallasi	0,92	43 688 960
32	Oq oltin mahallasi	0,92	43 688 960
33	Oq-ko‘l mahallasi	0,92	43 688 960
34	Yangi O‘zbekiston mahallasi	0,99	47 013 120
35	Paxtakor mahallasi	1,16	55 086 080
36	Po‘lat mahallasi	0,92	43 688 960
37	Qirg‘oq bo‘yi mahallasi	0,99	47 013 120
38	Qiyot mahallasi	0,99	47 013 120
39	Qumyop mahallasi	0,99	47 013 120
40	Qunduz mahallasi	0,99	47 013 120
41	Royat mahallasi	0,92	43 688 960
42	Shovot mahallasi	1,16	55 086 080
43	Taraqqiyot mahallasi	0,92	43 688 960
44	To‘qmang‘it mahallasi	0,92	43 688 960
45	Tuproqqal’a mahallasi	0,92	43 688 960
46	Turkiston mahallasi	1,16	55 086 080
47	Uzunko‘l mahallasi	0,92	43 688 960
48	Xitoy mahallasi	0,92	43 688 960
49	Yangi bo‘rloq mahallasi	0,92	43 688 960
50	Yangi yo‘l mahallasi	0,92	43 688 960
51	Yangiobod mahallasi	1,16	55 086 080
52	Zamondosh mahallasi	1,16	55 086 080

Xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-18-1-12-177-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1.	Shovot tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.0	1.0	1.2	1.2

Xalq deputatlari Shovot tumani Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-18-1-12-177-K/26 -son qaroriga
4-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Tuman (shahar)lar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Shovot tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2